



INKLYUZIV TA'LIMNING TERMINOLOGIK ASOSLARI

Pulatova Difuza Azamkulovna

CHDPU Maxsus pedagogika kafedra o'qituvchisi

To'raqulova Ditora Firuz qizi

CHDPU Logopediya yo'nalishi 2 - kurs talabasi

Mammadiyeva Dilobar Farhod qizi

CHDPU Logopediya yo'nalishi 2 - kurs talabasi

Abduvaxobova Nozigul Telmon qizi

CHDPU Logopediya yo'nalishi 2 -kurs talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- Aprel 2023 yil

Ma'qullandi: 28-Aprel 2023 yil

Nashr qilindi: 06-May 2023 yil

KEY WORDS

Inklyuziv ta'lim, modernizatsiya, terminologiya, integratsiya, korreksiya, individual.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Inklyuziv ta'limning maqsadi, tamoyillari va Inklyuziv ta'limdan ko'zlangan maqsad haqida yoritilgan bo'lib, Inklyuziv ta'limda har bir imkoniyati cheklangan bolaning ta'lim olish huquqi va sharoitlari haqida aytib o'tilgan.

Inklyuziv ta'lim - o'quvchilarning imkoniyatlari, individual - psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir.

Shuningdek, inklyuziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarni sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qitishni anglatadi. Inklyuziv ta'lim bir qator muhim tamoyillarga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Jumladan,

- Inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog'liq emasligi prinsipi;
- Har bir shaxsning his qilish va o'lash layoqatiga egaligi prinsipi;
- Har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;
- Har bir shaxsning bir - biriga kerakligi prinsipi;
- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi;
- Har bir o'quvchining o'z tengdoshlarining qo'llab - quvvatlovi va do'stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi;
- Turli - tumanlik o'quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta'minlashi zarurligi prinsipi kabilar.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 12.10.2021 yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-son qaror qabul qilindi.

Qaror bilan Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Unda quyidagilar belgilandi:

Inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari;

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi;

O'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi;

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish chora-tadbirlari.¹

"Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi (PQ-4860, 13.10.2020 y). Bu haqda "Huquqiy axborot" kanali xabar berdi.

Qaror bilan 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va uni 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Qarorga muvofiq, 2021/2022 o'quv yilida tajriba-sinov tariqasida:

- shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktablarda inklyuziv ta'lim joriy qilinadi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan maktabda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch korreksion sinflar ochiladi;
- Qashqadaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb-hunar maktabida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan guruhlar tashkil etiladi.²

Inklyuziv ta'lim, barcha o'quvchilarga bir xil ta'lim imkonini berishni maqsad qiladi. Bu ta'lim usuli, o'quvchilarning turli xil fikrlari va talablariga qarab moslashtiriladi va ularning har biri uchun o'zaro aloqalarni rivojlantirishga intiladi. Inklyuziv ta'limda, har bir o'quvchi o'zining qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra qaror qilishi mumkin bo'lgan bir nechta ta'lim usullari va o'quv dasturlari mavjud.

Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi, har bir o'quvchining o'zining eng yaxshi darajada o'rganishiga imkon berishdir. Bu o'quvchilarning turli xil talablari bo'yicha moslashtirilgan ta'lim dasturlari asosida amalga oshiriladi. Bu usulga asosan, turli xil ta'lim dasturlari va usullaridan foydalanish orqali, o'quvchilarning o'zaro aloqalarini rivojlantirish va ularga o'zlarini yaxshi his qilishlari mumkin bo'ladi.

Inklyuziv talimning boshqa bir maqsadi, o'quvchilarning turli xil talablari va qobiliyatlari bo'yicha moslashishlarini ta'minlashdir. Bu o'quvchilarning turli xil ta'lim usullari va dasturlari yordamida amalga oshiriladi. Bu usul, o'quvchilarning o'zining eng yaxshi darajada o'rganishlari uchun zarur bo'lgan sharoitlarni ta'minlaydi.

Inklyuziv talim, jamiyatdagi har bir insonning o'zining eng yaxshi darajada o'rganishiga imkon beruvchi, o'zaro aloqalarni rivojlantirishga intiladigan va jamiyatdagi muvofiqligini yaxshilashga yordam beruvchi bir ta'lim usulidir. Bu usul, o'quvchilarning turli xil talablari va qobiliyatlari bo'yicha moslashishlarini ta'minlaydi va ularning o'zaro aloqalarini rivojlantirish orqali jamiyatdagi muvofiqligini yaxshilashga yordam beradi.

¹ https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/bolalar_uchun_inklyuziv_talim_qanday_tashkil_etiladi

² <https://xs.uz/uz/post/maktablarda-inklyuziv-talim-zhorij-qilinadi-prezident-qarori>

Davlat standartlariga javob beradigan zamonaviy maktablarda inklyuziv ta'limga urg'u berilyapti. Inklyuziv ta'lim asosida inklyuziv ta'lim tamoyillari joriy etilgan. Alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalarga korreksion yordam berish orqali aqliy va ijtimoiy salohiyatini oshirish uchun tadqiqotlar olib borishga ehtiyojlar sezilmoqda. Shu sababli alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning ko'nikma va salohiyatlarini o'stirish uchun zamonaviy texnologiyalar yaratish kerak.

Hozirgi kunda individual imkoniyatga ega va jismoniy nuqsoni bor bolalar uchun maxsus ta'lim strategiyalari quyidagilarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

Birinchidan: Pedagogik-psixologik yordam orqali imkoniyati cheklanganlarni aqliy va ijtimoiy salohiyati korreksiyalanadi;

Ikkinchidan: Inklyuziv ta'limni rivojlantirish maqsadida ota - onalar va o'qituvchilar o'rtasida pedagogik - psixologik yondashuv asosida olib boriladigan targ'ibot ishlariga e'tibor qaratilishi kerak.

Natijada, mazkur bolalar uchun maktab internatlarini qaytadan modernizatsiya qilinadi.

Modernizatsiya, (fransuzchadan moderne - „eng yangi“, „zamonaviy“) - biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish.³

Mamlakatimizda inklyuziv ta'limda ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Usmanovna, Q. F., Azamkulovna, P. D., & Maxkamovna, M. D. (2022). INKLYUZIV TA'LIMDA KADRLAR MASALASI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 834-842.
- 2.Azamkulovna,P.D.(2022). BO'LAJAK O 'QITUVCHI-DEFEKTOLOGLARGA ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI OLIB BORISHNI O'RGATISH KASBIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIK KO 'RISH OMILI SIFATIDA. Scientific Impulse, 1(5), 413-418.
- 3.Pulatova, D., & Boboxonova, M. (2023). AKTDAN FOYDALANISH JARAYONIDA O'QITUVCHI IMKONIYATLARINI MAKTAB O'QUVCHILARI, TALABALAR VA O'QITUVCHILARNI AXBOROT BILAN TA'MINLASH. Академические исследования в современной науке, 2(12),78-86.
- 4.Usmanovna, Q. F. Azamkulovna, P. D. (2022) INKLYUZIV TA'LIM: NAZARIYA VA AMALIYOT Q-11 376.15.99
- 5.https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/bolalar_uchun_inklyuziv_talim_qanday_tashkil_etiladi.
- 6.<https://xs.uz/uz/post/maktablarda-inklyuziv-talim-zhorij-qilinadi-prezident-qarori>

³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Modernizatsiya>